

Sherzod Yoqubjonovich Abduqodirov
O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi muassisligidagi "International Journal of Justice" xalqaro ilmiy-amaliy elektron jurnali bosh muharriri

MUROJAATNOMA

Hurmatli hamkasblar, olimlar va huquqshunoslar!

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi sizga Akademiya muassisligidagi “International Journal of Justice” xalqaro ilmiy-amaliy elektron jurnali to‘g‘risida ma’lumot berishdan mamnun hamda huquq sohasidagi barcha olimlar, tadqiqotchilar, amaliyotchi huquqshunoslar va ta’lim muassasalarini ushbu jurnal bilan yaqindan hamkorlik qilishga taklif etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-avgustdagi “Odil sudlov sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-141-son Farmoniga muvofiq, Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi negizida O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi tashkil etildi. Yangi tashkil etilgan Akademiya oldiga sudyalar va sud tizimi xodimlarini xalqaro standartlar darajasida tayyorlash bilan bir qatorda, yuridik fanni rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirish vazifasi ham qo‘yildi.

Aynan shu maqsadlarni ilmiy jihatdan ta’minlash zaruriyatidan kelib chiqib, Akademiya tarkibida xalqaro miqyosda tan olinadigan, ingliz tilida nashr etiladigan ilmiy platforma tashkil etish g‘oyasi

shakllandi. Ushbu g‘oya o‘z ifodasini “International Journal of Justice” xalqaro ilmiy-amaliy elektron jurnali tahririyati to‘g‘risidagi Nizomda topdi, mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi Kengashi qarori bilan tasdiqlandi. Shu tariqa jurnal Akademiyaning rasmiy elektron ilmiy nashri sifatida faoliyat yurita boshladi.

“International Journal of Justice” xalqaro jurnalining Tahrir hay’ati tarkibi to‘qqiz mamlakatdan 18 nafar yetakchi olim va huquqshunos-amaliyotchilardan iborat. Tahrir hay’ati a’zolari Finlandiya, Singapur, Polsha, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Vengriya, Ispaniya, Litva va Buyuk Britaniyaning nufuzli oliy ta’lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot markazlari hamda xalqaro tashkilotlarida faoliyat yuritadi.

Tahrir hay’atining xorijiy a’zolari qatoriga Singapur Xalqaro tijorat sudi sudyasi Anselmo Reyes (Singapur); xalqaro arbitr Borzu Sabahi (Amerika Qo‘shma Shtatlari); Seged universiteti Jinoyat huquqi va jinoyat-huquqiy fanlar instituti rahbari Krisztina Karsai (Vengriya); Salamanka universiteti professori Lorenzo Mateo Bujosa Vadell (Ispaniya); xalqaro arbitr va London universiteti doktoranti Maged Mamdouh Kamel Shebaita (Buyuk Britaniya); Helsinki universiteti professori Sakari Kristian Melander (Finlandiya); Huquq va boshqaruv fakulteti Ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish bo‘yicha ekspertlar kengashi raisi Sławomir Marek Redo (Polsha); hamda Vilnyus universiteti professori Vigita Vėbraitė (Litva) kiradi.

Tahrir hay’atining geografik jihatdan keng va professional tarkibi jurnalning xalqaro ilmiy nashr standartlariga muvofiq faoliyat yuritishi, turli huquqiy maktablar va ilmiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirish hamda maqolalarni xolis va yuqori akademik mezonlar asosida baholashga xizmat qiladi.

Xalqaro miqyosda faoliyat yuritayotgan taniqli olimlar va amaliyotchilarning tahrir hay’atiga jalb etilgani jurnalning ilmiy sifati, xalqaro akademik aloqalari va nufuzini mustahkamlashga, shuningdek, jahon ilmiy hamjamiyati bilan samarali hamkorlikni rivojlantirishga muhim zamin yaratadi.

Jurnalning tub maqsadi – milliy va xalqaro miqyosda yurisprudensiyaning dolzarb muammolarini, sud-huquq sohasidagi islohotlarni hamda ularning mazmun-mohiyatini fundamental tarzda tadqiq etishdan iborat. Jurnal huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish, milliy qonunchilikni ilmiy tahlil qilish, huquqni qo‘llash amaliyotidagi kollizion normalar va tizimli muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflarni shakllantirish uchun ochiq platforma bo‘lib xizmat qiladi.

“International Journal of Justice” jurnalining asosiy strategik maqsadlaridan biri Markaziy Osiyoda huquq fanlari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni yangi bosqichga olib chiqishga xizmat qiluvchi o‘ziga xos ilmiy ko‘prik vazifasini bajarishdan iborat. Jurnal mintaqadagi huquqshunos olimlar, tadqiqotchilar va amaliyotchilarni xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan bog‘lash, ilg‘or ilmiy yondashuvlar va

tajribalarni almashish uchun ochiq akademik platforma yaratishni ko‘zlaydi.

Jurnal tahrir hay’ati uzoq muddatli rivojlanish strategiyasi doirasida nashrning xalqaro ilmiy standartlar va ilg‘or akademik nashriyot talablariga to‘liq mosligini ta’minlashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Shu maqsadda, yaqin yillarda jurnalni xalqaro miqyosda tan olingan ilmiy ma’lumotlar bazalari, xususan, Scopus va Web of Science tomonidan indeksatsiya qilinadigan jurnallar qatoriga kiritish uchun zarur mezonlarga bosqichma-bosqich moslashish rejalashtirilgan.

Mazkur strategik yo‘nalish jurnalning ilmiy nufuzini oshirish, maqolalarning xalqaro darajadagi ilmiy manba sifatida foydalanishni ta’minlash, xorijiy tadqiqotchilar ishtirokini kengaytirish hamda Markaziy Osiyoda huquqshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning xalqaro akademik maydondagi mavqeini mustahkamlashga qaratilgan.

Jurnalning asosiy g‘oyasi – sud-huquq sohasidagi milliy tajribani xalqaro ilmiy hamjamiyat e’tiboriga yetkazish, shu bilan birga jahon yuridik fanining ilg‘or yutuqlari va xorijiy mamlakatlarning qonun ijodkorligi hamda huquqni qo‘llash sohasidagi tajribasini milliy qonunchilikka tatbiq etish imkoniyatlarini ochib berishdan iborat. Boshqacha qilib aytganda, jurnal milliy va xalqaro huquqiy makon o‘rtasida ilmiy ko‘prik vazifasini bajarishga, adolat va qonun ustuvorligi g‘oyalarini ilmiy tadqiqotlar orqali mustahkamlashga xizmat qiladi.

“International Journal of Justice” o‘z faoliyat doirasining kengligi bilan boshqa shu kabi jurnallardan ajralib turadi. Jurnal davlat va jamiyat qurilishining siyosiy-huquqiy muammolari, qonun ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish va sud-huquq tizimini liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari, qonuniylikni ta’minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish, jinoyatchilikka qarshi kurash hamda jamoat tartibini mustahkamlash masalalari, sud va huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatini yoritish, fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va siyosiy-huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan materiallar, yuqori malakali yuridik kadrlarni tayyorlash va milliy huquq maktabini shakllantirishga oid munozaralar, shuningdek, xalqaro huquqni rivojlantirish va uning normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etishning dolzarb masalalari bo‘yicha ilmiy materiallarni birlashtiradi.

Jurnal faoliyat doirasining kengligi uning tashkiliy-huquqiy va tarqatish parametrlarida ham o‘z aksini topgan. Xususan, nashr ingliz tilida, elektron shaklda amalga oshiriladi, obuna esa milliy va xalqaro miqyosda erkin tarzda tashkil etiladi. Jurnal O‘zbekiston Respublikasi hududida bo‘lgani kabi xorijiy davlatlarda ham tarqatiladi, bu esa uni nafaqat mahalliy, balki xalqaro ilmiy hamjamiyat uchun ham ochiq platformaga aylantiradi. Nashrning har chorakda muntazam chop etilishi, zarurat tug‘ilganda esa maxsus sonlarning ham nashr etilishi mumkinligi jurnalning moslashuvchan va dinamik tuzilishidan dalolat beradi. Tahrir hay’ati tarkibiga nafaqat mahalliy, balki xorijiy yuqori malakali

mutaxassislarning ham kiritilishi mumkinligi jurnalning xalqaro miqyosdagi ilmiy salohiyatini yanada mustahkamlaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Odil sudlov akademiyasi “International Journal of Justice” xalqaro ilmiy-amaliy jurnalini yurisprudensiya sohasidagi ilmiy tafakkurni rivojlantirish, milliy va xalqaro huquqiy tajribalarni birlashtirish hamda sud-huquq islohotlarining ilmiy-nazariy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiluvchi doimiy faoliyat yurituvchi platforma sifatida rivojlantirishga qat’iy intilmoqda. Shu munosabat bilan barcha olimlar, tadqiqotchilar, amaliyotchi yuristlar va ta’lim-tarbiya muassasalarini jurnal bilan hamkorlik qilishga, ilmiy maqolalarini nashr etishga hamda jurnalning xalqaro miqyosda tan olinishiga o‘z hissalarini qo‘shishga chorlaymiz.